

AKTYOR IJROSIDA RAMZIY ELEMENTLARNING TOMOSHABIN IDROKIGA TA'SIRI

Abduqunduzov Shoxruh-Mirzo Jahongir o'g'li
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti
Aktyorlik san'ati yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756567>

Annotatsiya. Mazkur tezisda aktyor ijrosida shakllanadigan ramziy elementlarning tomoshabin idrokiga ta'siri tahlil qilinadi. Unda aktyorning tanasi, ovozi, imo-ishorasi, pauzasi, nigohi, predmet bilan munosabati va sahna makoni obrazning ichki mazmunini ifodalovchi ramziy vositalar sifatida ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor ichki kechinmaning aktyorlik ifodasi orqali sahnaviy belgiga aylanishi hamda bu belgining tomoshabin tomonidan idrok etilib, hissiy-estetik qabul va tafakkuriy anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatishiga qaratiladi. Shu jihatdan ramziy element aktyor va tomoshabin o'rtasidagi badiiy-kommunikativ aloqani shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Kalit soʻzlar: aktyorlik sanʼati, ramziy element, sahnaviy belgi, tomoshabin idroki, hissiy-estetik taʼsir, aktyor ijrosi, sahna makoni, tafakkuriy anglash.

Kirish

Aktyorlik san'atida obraz yaratish jarayoni faqat matnni ifodali aytish yoki voqeani sahnada tashqi ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Aktyor sahnaga yoki ekranga chiqqan paytdan boshlab uning tanasi, ovozi, nigohi, pauzasi, imo-ishorasi, predmet bilan munosabati va makondagi joylashuvi tomoshabin ongida ma'lum bir ma'no hosil qila boshlaydi. Bu yerda muhim jihat shundaki, mazkur elementlar o'z-o'zicha ramziy ma'no kasb etmaydi; ular obrazning ichki holati, sahnaviy vaziyat va tomoshabin idroki bilan bog'langandagina badiiy belgi sifatida ishlaydi.

Aktyor ijrosida ramziy elementlar obrazning ichki mazmunini tashqi ifoda orqali ko'rinadigan, seziladigan va talqin qilinadigan shaklga keltiradi. Masalan, aktyorning sukuti oddiy jim turish emas, balki ichki qarama-qarshilik, qo'rquv, ayb hissi yoki qaror qabul qilish holatini anglatishi mumkin. Xuddi shuningdek, ovoz ohangidagi o'zgarish, nigohning chetga qochishi, predmetni ushlash usuli yoki sahnadagi masofa obrazning ruhiy holatini ochuvchi ramziy vositaga aylanishi mumkin. Biroq buni faqat tashqi harakat sifatida tushunish yetarli emas; ramziy element aktyorning ichki kechinmasi va tomoshabinning faol talqini o'rtasida yuzaga keladigan badiiy-kommunikativ hodisadir.

Mazkur masalani ilmiy jihatdan tushuntirishda K. Stanislavskiy, Mixail Chexov, V. Meyerhold, Yuriy Lotman va Antonin Arto qarashlari muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Stanislavskiy aktyorning ichki kechinmasi va sahnaviy haqiqatini, Chexov psixologik imo-ishorani, Meyerhold plastika va shartli harakatni, Lotman teatrni belgilar tizimi sifatida, Arto esa teatrning kuchli hissiy-estetik ta'sirini yoritadi. Shu sababli ushbu tezisda aktyor ijrosida shakllanadigan ramziy elementlarning tomoshabin idroki va hissiy-estetik qabuliga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy mantiqi ichki kechinma – aktyorlik ifodasi – ramziy belgi – tomoshabin idroki – hissiy-estetik ta'sir – tafakkuriy anglash zanjiri asosida belgilanadi.

1. Aktyor ijrosida ramziy elementlarning shakllanishi

Aktyor ijrosida ramziy elementning shakllanishi obrazning ichki mazmuni bilan tashqi ifoda o'rtasidagi murakkab bog'liqlik orqali yuzaga keladi. Bu jarayonda ramziy element sahnaning bezakli yoki qo'shimcha unsuri sifatida emas, balki aktyor tomonidan yaratiladigan ma'noli ifoda

vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Aktyorning ichki kechinmasi bevosita ko'rinmaydi; tomoshabin uni faqat aktyorning tanasi, ovozi, imo-ishorasi, pauzasi, nigohi, sahna makonidagi holati, predmet bilan munosabati va ijro ritmi orqali sezadi. Demak, ramziy element aktyorning ichki holati tashqi shaklga ko'chgan paytda paydo bo'ladi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, har qanday harakat yoki detal o'z-o'zidan ramziy ma'no kasb etmaydi. Masalan, aktyorning jim turishi oddiy sukut bo'lishi ham mumkin. Biroq sahnaviy vaziyat, obrazning ichki holati va tomoshabin kutuvi bilan bog'langanda, ayni shu sukut qo'rquv, ichki qarama-qarshilik, ayb hissi yoki qat'iy qaror oldidagi ruhiy bosimni anglatishi mumkin. Xuddi shuningdek, nigohning chetga qochishi obrazning ojizligini, yashirin qo'rquvini yoki aytilmagan haqiqatni bildirishi mumkin. Demak, ramziy elementning kuchi uning tashqi ko'rinishida emas, balki ichki mazmun va sahnaviy kontekst bilan aloqasidir.

K. Stanislavskiy tizimi bu jarayonning psixologik asosini tushuntirishda muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Stanislavskiy yondashuvida aktyor harakati ichki kechinma, maqsad va sahnaviy haqiqat bilan bog'langan bo'lishi kerak. Agar aktyor harakati ichki asosga ega bo'lmasa, u tomoshabin uchun ishonchli ko'rinmaydi. Shu sababli aktyorning pauzasi, ovoz ohangi yoki harakati ramziy ma'no kasb etishi uchun u obrazning ruhiy holatidan kelib chiqishi zarur. Boshqacha aytganda, ramziy ifoda tashqi effekt emas, balki ichki kechinmaning sahnadagi ko'rinishidir.

Mixail Chexov nazariyasi esa ramziy elementning obrazli va plastik tabiatini ochishga yordam beradi. Uning psixologik imo-ishora haqidagi qarashlarida aktyorning ichki holati umumlashtirilgan harakat, imo-ishora yoki tana impulsi orqali tashqi shaklga chiqadi. Masalan, obrazning ichki istagi “yaqinlashish”, “chekinish”, “egallash” yoki “ozod bo'lish” kabi harakatlarda mujassam bo'lishi mumkin. Bu harakatlar har doim ham sahnada ochiq ko'rinmasligi mumkin, lekin ular aktyorning ovozig, tanasiga, yurish ritmiga va nigohiga ta'sir qiladi. Shu jihatdan Chexov yondashuvi aktyor ijrosida ichki kechinmaning ramziy sahna harakatiga aylanishini tushuntiradi.

V. Meyerhold qarashlari esa aktyor tanasi, plastika va ritmning ramziy belgi sifatida ishlashini ko'rsatadi. Meyerhold teatrida sahna harakati hayotdagi oddiy harakatning nusxasi emas, balki badiiy jihatdan tashkil etilgan shartli harakatdir. Aktyorning keskin burilishi, tana holatining o'zgarishi, ritmik takror yoki kutilmagan to'xtash tomoshabin ongida muayyan ma'no uyg'otishi mumkin. Biroq bu yerda ham asosiy masala tashqi shaklning o'zida emas, balki uning obraz, vaziyat va sahnaviy ritm bilan bog'liqligidadir.

Aktyor ovozi va nutq ohangi ham ramziy element shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bir xil so'z turli ohangda aytilganda mutlaqo boshqa ma'no hosil qilishi mumkin. Masalan, sokin ovoz ba'zan mehrni emas, aksincha, ichki sovuqlik yoki yashirin tahdidni bildiradi. Aksent, nutqdagi uzilish, nafas olishdagi o'zgarish yoki gap orasidagi qisqa pauza obrazning ichki tarangligini ochib berishi mumkin. Bu holatda ovoz faqat eshitiladigan tovush emas, balki obraz ruhiyatini bildiruvchi ramziy vositaga aylanadi.

Predmet bilan munosabat ham aktyor ijrosida ramziy ma'no hosil qilishi mumkin. Oddiy buyum sahnada obrazning xotirasi, aybi, istagi yoki yo'qotgan narsasini anglatadigan belgiga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Aktyor predmetni qanday ushlaydi, unga qanday qaraydi, undan uzoqlashadimi yoki unga yopishib oladimi — bularning barchasi tomoshabin uchun qo'shimcha ma'no yaratadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ramziy element aktyor ijrosida alohida detal sifatida emas, balki ichki kechinma, sahnaviy vaziyat, tana, ovoz va predmet o'rtasidagi bog'liqlikda shakllanadi.

Shunday qilib, aktyor ijrosida ramziy elementning shakllanishi bir bosqichli jarayon emas. U avvalo ichki kechinmadan boshlanadi, keyin aktyorlik ifodasi orqali tashqi shaklga chiqadi va sahnaviy kontekstda ramziy belgiga aylanadi. Stanislavskiy bu jarayonning ichki psixologik asosini, Chexov obrazli imo-ishora va tasavvur bilan bog'liq jihatini, Meyerhold esa tana, plastika va ritm orqali yuzaga keladigan shartli sahnaviy shaklini tushuntirishga yordam beradi. Shu sababli ramziy element aktyor ijrosida tashqi ko'rinishdan ko'ra chuqurroq hodisa — obrazning ichki mazmunini tomoshabin idrokiga yetkazuvchi badiiy vosita sifatida qoraladi.

2. Ramziy elementlarning tomoshabin idrokiga ta'sir mexanizmi

Aktyor ijrosida shakllangan ramziy element o'zining to'liq badiiy ma'nosiga faqat tomoshabin idrokida erishadi. Aktyor sahnada yoki ekranda belgi yaratadi, biroq bu belgi tomoshabin tomonidan ko'rilib, sezilib va talqin qilingandagina haqiqiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shu sababli tomoshabin bu jarayonda passiv kuzatuvchi emas. U sahnadagi harakat, ovoz, pauza, nigoh, predmet yoki makonni shunchaki ko'rmaydi — ularni o'z tajribasi, hissiy xotirasi, madaniy tasavvuri va estetik sezgisi orqali ichida qayta anglaydi.

Bu jarayonni tushuntirishda Yuriy Lotman qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Lotman san'at va teatrni belgilar tizimi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, sahnadagi har bir element alohida-alohida emas, balki umumiy badiiy tizim ichida ma'no hosil qiladi. Aktyorning harakati, predmet, sahna makoni, yorug'lik, ovoz, kiyim, makiyaj, pauza yoki nigoh tomoshabin tomonidan o'qiladigan belgilar sifatida ishlaydi. Masalan, sahnada oddiy predmet faqat buyum bo'lib qolmasligi mumkin; u obrazning xotirasi, aybi, orzusi yoki yo'qotgan narsasini anglatadigan belgiga aylanadi. Biroq bu ma'no predmetning o'zida tayyor holda mavjud emas. U sahnaviy vaziyat, aktyorning unga munosabati va tomoshabin talqini orqali shakllanadi.

Tomoshabin idroki aynan shu nuqtada faollashadi. U aktyorning sukutini, ovozdagi o'zgarishni, mayda mimikani yoki takrorlanadigan sahnaviy detalni avval sezadi, keyin esa uni obrazning ichki holati bilan bog'laydi. Masalan, aktyorning uzoq davom etgan pauzasi tomoshabinda oddiy kutish hissini emas, balki bezovtalik, gumon, suspens yoki ichki bosimni uyg'otishi mumkin. Xuddi shuningdek, nutqdagi aksent yoki ovoz ohangining keskin o'zgarishi obrazning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiy holati yoki yashirin niyatini anglatishi mumkin. Bu holatda tomoshabin belgini faqat aql bilan emas, balki his bilan ham qabul qiladi.

Antonin Arto qarashlari ramziy elementlarning aynan hissiy-estetik ta'sirini ochishda muhimdir. Arto teatrni faqat matn yoki mantiqiy bayon san'ati sifatida emas, balki tomoshabinning sezgisi, tanasi va ruhiy holatiga bevosita ta'sir qiluvchi hodisa sifatida tushuntiradi. Uning yondashuvida tana, ovoz, ritm, harakat, tovush va sahnaviy zarba tomoshabinni ichki jihatdan silkitadi. Shu ma'noda ramziy element faqat talqin qilinadigan belgi emas, balki his qilinadigan sahnaviy kuchdir. Tomoshabin buni ba'zan darhol tushuntirib bera olmasligi mumkin, ammo u bezovtalik, hayrat, qo'rquv, hamdardlik yoki estetik masofani his qiladi.

Shu o'rinda ramziy elementning ta'sir mexanizmini bir yo'nalishli jarayon sifatida tushunish yetarli emas. Aktyor ichki kechinmani aktyorlik ifodasi orqali ramziy belgiga aylantiradi. Tomoshabin esa bu belgini idrok etadi, unga hissiy-estetik munosabat bildiradi va keyinchalik uni tafakkur orqali anglaydi. Demak, dissertatsiyada ilgari surilgan ichki kechinma — aktyorlik ifodasi — ramziy belgi — tomoshabin idroki — hissiy-estetik ta'sir — tafakkuriy anglash zanjiri aynan shu yerda o'z amaliy mazmunini topadi.

Ramziy elementning ma'nosi faqat aktyor tomonidan yaratilmaydi. U sahnaviy kontekst, belgilar tizimi va tomoshabin talqini orqali to'liq shakllanadi. Shu sababli aktyor ijrosi va tomoshabin qabul qilishi o'rtasida badiiy-kommunikativ aloqa yuzaga keladi. Bu aloqa qanchalik

aniq, ichki asosli va estetik jihatdan ta'sirchan bo'lsa, ramziy element tomoshabin ongida shunchalik chuqur iz qoldiradi.

Xulosa

Mazkur tezis shuni ko'rsatadiki, aktyor ijrosidagi ramziy elementlar sahnaning tashqi bezagi yoki oddiy ifoda vositasi emas, balki obrazning ichki mazmunini tomoshabinga yetkazuvchi badiiy-kommunikativ hodisadir. Aktyorning tanasi, ovozi, imo-ishorasi, pauzasi, nigohi, predmet va makon bilan munosabati obrazning ruhiy holatini bevosita emas, balki ramziy shaklda ifodalaydi.

Ramziy element aktyor ijrosida shakllanadi, biroq uning to'liq ma'nosi tomoshabin idroki va talqinida yuzaga chiqadi. Tomoshabin sahnaviy belgini shunchaki kuzatmaydi; u uni sezadi, ichki tajribasi bilan solishtiradi va hissiy-estetik munosabat bildiradi. Natijada aktyorning ijro vositalari tomoshabinda hamdardlik, bezovtalik, estetik masofa yoki tafakkuriy savol uyg'otishi mumkin.

Tadqiqotda ilgari surilgan ichki kechinma → aktyorlik ifodasi → ramziy belgi → tomoshabin idroki → hissiy-estetik ta'sir → tafakkuriy anglash zanjiri aktyor va tomoshabin o'rtasidagi badiiy aloqani tushuntirishga xizmat qiladi. Stanislavskiy ichki kechinma va sahnaviy haqiqatni, Chexov psixologik imo-ishorani, Meyerhold plastika va shartli harakatni, Lotman belgilar tizimini, Arto esa hissiy-estetik ta'sirni anglashga yordam beradi. Shu asosda aytish mumkinki, ramziy element aktyor ijrosi va tomoshabin idroki o'rtasidagi asosiy bog'lovchi vositalardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Stanislavskiy K. An Actor's Work: A Student's Diary / Translated and edited by Jean Benedetti. — London; New York: Routledge, 2008.
2. Chekhov M. To the Actor: On the Technique of Acting / Edited by Mala Powers. — London; New York: Routledge, 2002.
3. Meyerhold V.E. Meyerhold on Theatre / Edited and translated by Edward Braun. — London: Methuen, 1969.
4. Lotman Yu.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. — London; New York: I.B. Tauris, 1990.
5. Artaud A. The Theatre and Its Double / Translated by Mary Caroline Richards. — New York: Grove Press, 1958.
6. Elam K. The Semiotics of Theatre and Drama. — London; New York: Routledge, 1980.
7. Pavis P. Dictionary of the Theatre: Terms, Concepts, and Analysis. — Toronto: University of Toronto Press, 1998.